

Date: 23<sup>rd</sup> June-2026

**BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLİYAVIY HISOBOTLARDA ADOLATLI  
QIYMATNING O‘RNI ADOLATLI QIYMATNI MOLİYAVIY HISOBOTDA AKS  
ETTIRISHNING IMKONIYATLARI.**

**Rajabova Maftuna Shuhrat qizi**

Buxoro davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va statistika”

kafedrası o‘qituvchi-stajori, magistrant

E-mail: [maftunarajabova526@gmail.com](mailto:maftunarajabova526@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zamonaviy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) tizimida adolatli qiymat (Fair Value) konsepsiyasining tutgan o‘rni hamda ahamiyati tadqiq etilgan. Maqolada adolatli qiymatni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning mavjud imkoniyatlari, afzalliklari va ushbu jarayonda yuzaga keladigan uslubiy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida aktiv va majburiyatlarni real qiymatda baholash orqali investorlar va manfaatdor tomonlar uchun hisobotlarning shaffofligi hamda ishonchligini oshirish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot yakunida adolatli qiymat ierarxiasini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Adolatli qiymat, moliyaviy hisobot, MHXS (IFRS), aktivlarni baholash, hisobotlar shaffofligi, bozor yondashuvi, daraja ierarxiyasi, buxgalteriya hisobi.

**ASOSIY QISM**

Zamonaviy buxgalteriya hisobining rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobotning maqsadi faqat o‘tgan davr xarajatlarini aks ettirishdan (retrospektiv), kelajakdagi iqtisodiy foydalarni bashorat qilishga (prospektiv) o‘zgarmoqda. Bu jarayonda adolatli qiymat moliyaviy hisobotning dolzarbligini (relevance) ta‘minlovchi fundamental element bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotning sifat xususiyatlarini oshirishda adolatli qiymatning o‘rni

MHXSning "Konseptual asoslari"da moliyaviy hisobot ma‘lumotlari foydali bo‘lishi uchun ma‘lum sifat xususiyatlariga ega bo‘lishi lozimligi belgilangan. O‘zbekistonda moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdagi roli hamda O‘zbekiston korxonalari uchun adolatli qiymatga o‘tish quyidagi strategik imkoniyatlarni taqdim etadi:

1. Xalqaro kredit reytinglarini olish: Aktivlar real qiymatda bo‘lganda, korxonaning garov ta‘minoti va kapital tarkibi xalqaro banklar uchun tushunarli bo‘ladi.
2. IPOga tayyorgarlik: Fond birjasiga chiqishni rejalashtirayotgan kompaniyalar uchun adolatli qiymat — bu aksiyalar narxini asoslashning yagona yo‘lidir.
3. Boshqaruv samaradorligi: Ichki menejment aktivlarning foyda keltirish darajasini ularning tarixiy narxi bilan emas, balki bugungi bozor narxi bilan solishtirib, samaradorlikni aniqroq baholay oladi.



Date: 23<sup>rd</sup> June-2026

Adolatli qiymat moliyaviy hisobotda shunchaki raqamli o'zgarish emas, balki shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlovchi strategik instrumentdir. Uning hisobotda to'g'ri aks ettirilishi axborot asimmetriyasini kamaytiradi va milliy korxonalarining global moliya bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtiradi<sup>71</sup>. IFRS 9 va IAS 40 standartlari doirasida adolatli qiymatni qo'llash (Qiyosiy tahlil)da adolatli qiymatni moliyaviy hisobotda aks ettirishning o'ziga xosligi shundaki, turli aktivlar uchun u turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu "hisob siyosatining o'zgaruvchanligi" sifatida tahlil qilinadi.

A) IFRS 9 "Moliyaviy instrumentlar": Ushbu standartda adolatli qiymat "Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan" (FVTPL) modelini joriy etadi. Bu holatning amaliy ahamiyati ahundan iboratki agar korxonada boshqa kompaniyalarning aksiyalari yoki obligatsiyalari bo'lsa, yil yakunida ularning bozor narxi oshishi bevosita korxonaning joriy foydasini oshiradi. Masalan korxona yil boshida 100 mln so'mga aksiya sotib oldi. Yil yakunida Bozor bahosi 120 mln so'mga yetdi. 20 mln so'mlik farq balansda aktivni oshirish bilan birga, "Foyda va zararlar" hisobotida daromad sifatida tan olinadi.

B) IAS 40 "Investitsion ko'chmas mulk": Investitsion mulk (ijaraga berish yoki qiymatining oshishi uchun saqlanayotgan bino/yer) uchun adolatli qiymat modeli eng samarali usuldir. Buning asosiy xususiyati ssosiy vositalardan (IAS 16) farqli o'laroq, bu yerda amortizatsiya hisoblanmaydi. Buning o'rniga har bir hisobot sanasida mulk adolatli qiymatga keltiriladi<sup>72</sup>. Tadqiqot natijasiga ko'ra bu model korxona balansini "eskirgan" binolar bilan to'lib qolishidan asraydi va aktivlarning real bozor salohiyatini ko'rsatadi. O'zbekistonda adolatli qiymatni joriy etish shunchaki ixtiyoriy jarayon emas, balki davlat darajasidagi strategik talabdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori mamlakatimiz iqtisodiyotining shaffofligini oshirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda burilish nuqtasi bo'ldi. Qarorning mazmuni "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Ushbu qarorning ahamiyati u bilan 2021-yildan boshlab yirik soliq to'lovchilar, banklar va sug'urta tashkilotlari majburiy ravishda MHXSga o'tdi. Bu esa "Adolatli qiymat" tushunchasini milliy iqtisodiyotimizning huquqiy maydoniga rasman olib kirdi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda qonuniy darajada aktivlarni baholashda xalqaro prinsiplarga tayanish imkoniyati belgilab qo'yildi.

Avvalgi tizimda aktivlar faqat "tarixiy tannarx" va "indeksatsiya qilingan qayta baholash" asosida hisobga olingan bo'lsa, yangi huquqiy muhitda IFRS 13 talablariga muvofiq professional baholash hisobotlaridan foydalanishga yo'l ochildi. MHXSga majburiy o'tish qarorga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va moliyaviy hisobot tayyorlashi belgilandi. Bu esa MHXS 13 "Adolatli qiymatni o'lchash" standartini amaliyotga joriy etishni huquqiy zaruratga aylantirdi. Xalqaro sertifikatlash va kadrlar tayyorlash qarorda soha mutaxassislarini xalqaro sertifikatlash (ACCA, DipIFR va boshqalar) tizimi bo'yicha tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.



Date: 23<sup>rd</sup> June-2026

Investitsion jozibadorlik PQ-4611-sonli qarorning asosiy maqsadi — xorijiy investorlar uchun tushunarli va shaffof moliyaviy muhit yaratishdir. Adolatli qiymat konsepsiyasi aynan investorlar uchun qaror qabul qilishda eng dolzarb axborot manbasi bo'lganligi sababli, ushbu qaror talablarini bajarish bevosita korxonalarining bozor qiymatini haqqoniy aks ettirish bilan bog'liqdir.

1-jadval:

**Adolatli qiymatni aks ettirishning moliyaviy hisobotga ta'siri (Xalqaro va Milliy yondashuv)**

| Ko'rsatkich            | Milliy standart (BHMS) - Eski yondashuv       | MHXS (IFRS 13) - Yangi yondashuv                                                          |
|------------------------|-----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
| Baholash asosi         | Tarixiy tannarx yoki koeffitsiyentli baholash | Bozor ma'lumotlari (Fair Value)                                                           |
| Foydaning shakllanishi | Faqat aktiv sotilgandagi real foyda           | Bozor bahosi oshishidan olingan "qog'ozdagi" foyda ham tan olinishi mumkin                |
| Investor kutilmalari   | Ma'lumotlar eskirgan, xavf yuqori             | Ma'lumotlar dolzarb, shaffoflik ta'minlangan                                              |
| Soliq oqibatlari       | Qayta baholash soliqqa tortilmaydi            | MHXS foydasi va soliq foydasi o'rtasida vaqtinchalik farqlar (Deferred Tax) yuzaga keladi |

O'zbekistonning huquqiy maydonidagi islohotlar (masalan, PQ-4611) korxonalar oldiga aktivlarni faqat xarajatlar bo'yicha emas, balki bozor qiymatida aks ettirish talabini qo'yimoqda. IFRS 9 va IAS 40 kabi standartlarning keng qo'llanilishi esa moliyaviy hisobotning sifati va uning xalqaro investorlar uchun tushunarligini ta'minlovchi asosiy omildir. PQ-4611 Hisob siyosatidagi inqilobiy o'zgarish Ushbu qaror ijrosi natijasida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar uchun MHXSga majburiy o'tish belgilandi. Bu esa adolatli qiymatni qo'llashni ixtiyoriy tanlovdan majburiyatga aylantirdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.1 . O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
- 1.2 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
- 1.3 . Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: International Accounting Standards Board (IASB), 2018.

Date: 23<sup>rd</sup> June-2026

- 1.4 . International Accounting Standard (IAS) 1. Presentation of Financial Statements. – London: IASB, 2007.
- 1.5 . International Accounting Standard (IAS) 16. Property, Plant and Equipment. – London: IASB, 2003.
- 1.6 . International Accounting Standard (IAS) 32. Financial Instruments: Presentation.– London: IASB, 2003.
- 1.7 . International Accounting Standard (IAS) 40. Investment Property. – London: IASB, 2003.
- 1.8 . International Accounting Standard (IAS) 41. Agriculture. – London: IASB, 2001.
- 1.9 . International Financial Reporting Standard (IFRS) 3. Business Combinations. – London: IASB, 2008.
- 1.10. International Financial Reporting Standard (IFRS) 7. Financial Instruments: Disclosures. – London: IASB, 2005.
- 1.11. International Financial Reporting Standard (IFRS) 9. Financial Instruments. – London: IASB, 2014.
- 1.12. International Financial Reporting Standard (IFRS) 13. Fair Value Measurement.– London: IASB, 2011.
- 2.1. Бригхем Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. – СПб.: Питер, 2016. – 864 с.
- 2.2. Булыга Р.П. Аудит бизнеса в условиях перехода к цифровой экономике. – М.: Юнити-Дана, 2019. – 285 с.
- 2.3. Вахрушина М.А. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: Национальное образование, 2014. – 416 с.

